O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2536-2
2025 - yil 12 - Dekabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6^1-bandiga qo‘shimcha kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi va “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-noyabrdagi PF–210-son “Amerika-O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2013-yil 23-noyabrdagi 22/2-son qarori (ro‘yxat raqami 2536, 2013-yil 17-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 51-son, 670-modda) bilan tasdiqlangan Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6^1-bandi quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“AQSHdagi xorijiy korxonalarning ustav fondini shakllantirish (yoki kapitalda ishtirok etish) uchun investitsiya faoliyati bo‘yicha rezidentlar operatsiyalari – O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi rezidentlar hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini o‘tkazish, AQSHdagi filiallarini aylanma mablag‘lar bilan to‘ldirish rezidentlar hisobvaraqlaridagi valyuta mablag‘lari doirasida amalga oshiriladi.”.

2. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2025-yil 11-dekabr
33/1-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH